

**INSON INTELLEKTINI REPREZENTLOVCHI  
FRAZELOGIZMLARNING LINGVOKOGNITIV ASPEKTI**

*Nurmuxammedov Yusuf Shakarboyevich*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

[\*nurmuhammad.yu@gmail.com\*](mailto:nurmuhammad.yu@gmail.com)

*Samarqand, O'zbekiston*

***Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi inson dunyoqarashining universal va unikal jihatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar, til, madaniyat va shaxsiyatning o'zaro aloqalari, konsept, lingvomadaniyatshunoslik fani va inson intellektual olamini ifodalovchi frazeologizmlarining shakllanish asoslari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** frazeologizm, konsept, lingvomadaniyatshunoslik, til, madaniyat, intellekt, intralingvistik va ekstralingvistik omil*

Jahon tilshunosligida turli tizimli tillar frazeologik birliklarida aks etgan etnos dunyoqarashining universal va unikal jihatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish va ilmiy tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Insonning ijtimoiy, moddiy va botiniy olamining bosh konseptlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning konseptual tahlili kognitiv lingvistika va lingvokulturalogiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanuvchi konsept strukturasi qirralari va uning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish dolzarb hisoblanmoqda.

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda insonning ijtimoiy, moddiy va botiniy olamini ifodalovchi asosiy universal konseptlar o'ziga xos madaniy bo'yogga ega bo'lgan milliy madaniyatimizning ifodalovchi lisoniy hamda tafakkuriy mexanizmi sifatida talqin etilmoqda. Universal konseptlarning frazeologik birliklar orqali representlashuvini zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida yoritib berish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Lingvistika va madaniyatshunoslik paradigmalari kesishmasida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati til, mentalitet va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tabiatini ochib berish hisoblanadi. Madaniyatshunoslik insonning tabiat, tarix, jamiyat, ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa sohalariga nisbatan insonning o'z-o'zini anglashini tadqiq etsa, antropotsentrik lingvistika tilda ifodalangan insonning olamni idrok qilish, zohiriy va botiniy olam va uning ob'ektlarini o'zlashtirish natijalarini til vositalari bilan lisoniy ongda fiksatsiyalash kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Tilga antropotsentrik yondashuvning ildizlari V.fon Humboldning quyidagi mashhur g'oyalariga borib taqaladi: “Til xalqlar ruhining xuddi zohiriy namoyon bo'lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardan-da bir-biriga mos boshqa biron narsani tasavvur qilib bo'lmaydi”; “Tillarning xilma-xilligi tovushlar va belgilardagifarqlar tufayligina emas, balki dunyoni ko'rishning o'zidagi farqlar tufayli hamdir”; “Turli tillar millatlar uchun ularning original tafakkuriva tasavvuri organlari ekanligini umume'tirof etilgan deb hisoblash mumkin”; “Tafakkur umuman tilga shunchaki bog'liqqina emas, u muayyan darajada har bir alohida til bilan shartlangan hamdir”; “Xarakter yaratish uchun eng qulay vosita tildir; butun milliy xarakter faqat tilda muhrlangan”; “Millatning xarakterini axloq, odat, xatti – harakatidanko'ra, tiligaqarab osonlik bilan bilish mumkin” [5, 7].

V.N.Teliya lingvomadaniyatshunoslik predmeti sifatida «til va madaniyatning o'zaro ta'sir usullari va sinxron harakatdagi vositalarini tadqiq qilish va tavsiflash»ni [6, 218], V.V.Krasnix «madaniy ahamiyatli mazmunga ega til va diskurs birliklari»ni ko'rsatdi. V.A.Maslova ularni yanada aniqlashtirdi: 1) noekivalent leksika va lakunlar; 2) mifologik lisoniy birliklar; 3) til paremiologik fondi; 4) til frazeologik fondi; 5) etalon, stereotip, ramzlar; 6) til metafora va obrazlari; 7) turli tillar uslubiy tarzi; 8) nutqiy xulq; 9) nutqiy etiket maydoni [4,37]. Umuman, olamning lisoniy manzarasini hosil qiluvchi verballashgan moddiy, ijtimoiy va ruhiyatga oid madaniyat tadqiqi lingvomadaniyatshunoslikning predmeti hisoblanadi.

S.A. Askoldov XX asrning 20-yillaro oxiridaga “Konsept va so’z” maqolasida konseptni “ayni bir turdagi ko’p sonli predmetlar haqida fikr yuritishga undovchi tafakkur shakli” deb izohlaydi. Ya’ni unga ko’ra, inson o’simlik organizmi haqida bir qanch umumiy holatlarni bayon etganda, u alal-oqibatda barcha noaniq ko’p sonli real yoki tasavvurga asoslangan o’simliklarni nazarda tutadi. Demak, konseptual konstruksiyalar vositasida amalga oshiriladigan konsept tahlili natijasida muayyan shaxs yoki millatning konsept haqidagi potensial bilimlari, olam manzarasi, qolaversa milliy-madaniy dunyoqarashi haqida axborotga ega bo’lishimiz mumkin.

Bilimni gavalantirish strukturasi konseptlar ideal konstruksiya hisoblanadi. Konsept turli rakurslardan kelib chiqib ko’p sonli izohlarga ega. Masalan, E.S.Kubriyakova konseptni inson tafakkur jarayonida ishlaydigan fikr (ma’no-mazmun)lar haqidagi tasaffurlariga javob beradigan, insonning bilim va tajribalari, butun faoliyati va olamni bilish jarayoni natijalari tarkibini bilimning qandaydir “kvantlari” ko’rinishida aks ettiruvchi tushuncha sifatida izohlaydi[3,90].

A.Vejbidskaya konseptni “Real” olam haqidagi insonning madaniy-shartlangan tasavvurini aks ettiruvchi va nomga ega bo’lgan “Ideal” olam obyektini sifatida tushunadi. B.A.Babushkin konseptga “moddiy va nomoddiy borliq faktlari haqidainson bilimlarining u yoki bu darajada aks etuvchi, turli darajada yorqin va aniq bo’lgan yaxlit ideal tarkib”, “real yoki ideal olam predmetini aks ettiruvchi va til sohiblarining milliy ongida verbal anglatuvchi ko’rinishida saqlanuvchi jamoaviy ongning har qanday diskret mazmunli birligi”, “ongda turli konfiguratsiyalar, turli darajadagi aniqlikda obyekt xususiyatlari u yoki bu darajada reduplikatsiyalangan hoilda qurilgan obraz” deb izoh beradi [1,47-51].

Ma’lumki, lug’aviy ifodalanishiga ko’ra, konseptlar leksik va frazeologik konseptlarga ajratiladi. Konsept mental reprezentatsiya bo’lib, predmetlar o’zaro qanday bog’langan va ular qanday kategoriyalashuvini aniqlaydi. Tafakkur jarayonida konseptlar amalga oshiradigan asosiy vazifa muayyan o’xshashliklarga ega bo’lgan obyektlarni mos sinflarga guruhlashga imkon beruvchi kategoriyalashtirishdir. Biz fikr yuritish uchun zarur bo’lgan xususiyatlardan

muhim bo'lmagan detallarni ajratishga qobiliyatimiz. Bu turli predmet va hodisalarni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish imkonini beradi.

Quyida insonning intellektual olami konseptlarining tilda reprezentlashuvining ayrim qismlari haqida so'z yuritiladi. Masalan, bevosita insonning fikrlash faoliyatini ifodalovchi frazeologizmlar: *sabe bastante para su año* (ispancha); *akli dağilmak* (turkcha); *zehni past* (o'zbekcha); intellektni ifodalovchi somatik frazeologizmlar: *cabeza redonda* (ispancha); *gözleri (gözü) kapali* (turkcha); *miyasi aynimoq* (o'zbekcha); intellektni bilvosita ifodalovchi frazeologizmlar: *ir uno baúl y volver petaca* (ispancha); *ağır kazan geç kaynar* (turkcha); *kalavani uchini yo'qotmoq* (o'zbekcha).

Ma'lumki, frazeologizmlar shakllanish asoslariga ko'ra intralingvistik va ekstralingvistik kategoriyalarga ajratiladi. Ushbu kategoriyalarga kiruvchi intellektual olam konseptlarini ifodalovchi frazeosemantik guruhlarining ijobiy va salbiy qutblari farqlanadi. Masalan, ispan lingvomadaniyatida intralingvistiki yoxud folklor janrlari asosida shakllangan, ijobiy qutbini ifodalovchi frazeologik birliklarga *para eso no se necesita ser ningún Séneca, saber mas que Calepino* kabilar kiradi. Xalq og'zaki ijodi qahramonlari yoxud tarixiy shaxs nomlari orqali intellektning salbiy qutbini ifodalovchi frazeologizmlar: *más tonto que Pichóte; a los bobos se les aparece la madre de dios* kabilar hisoblanadi.

Ekstralingvistik omillar asosli intellektning ijobiy qutbiga kiruvchi frazeosemantik kategoriyalar quyidagicha, masalan somatik frazeologizmlar (*abierto de ojos, buena cabeza*), tabiat hodisalari asosida shakllangan frazeologizmlar (*buenas (claras) luces, beber uno los aires*), zoonimik frazeologizmlar (*sabe mas que una lagartija, mas astuto que una mona*) va hok. Intellektni tavsiflovchi ispan tili frazeologizmlarining salbiy qutbini ifodalovchi frazeologizmlar quyidagicha, masalan somatik frazeologizmlar (*cabeza redonda, estar perdido de la cabeza*), tabiat hodisalari asosida shakllangan frazeologizmlar (*irse (marcharse) uno por las nubs, quedarse uno frío*), zoonimik frazeologizmlar (*burro en todas partes, dijo la zorra al lobo lo que la sartén al cazo*).

Umuman olganda, inson intellektini tavsiflovchi ispan tili frazeologizmlarining

katta qismi «axmoq» semasini turli animativ va noanimativ oʻxshatishlarga asoslangan troplar orqali ifodalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж: Изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996. –103 с
2. Испанско-русский фразеологический словарь: 30000 фразеологических единиц/Э. И. Левинтова, Е. М. Вольф, Н. А. Мовшович, И. А. Будницкая; Под ред. Э. И. Левинтовой. — М.: Рус. яз., 1985. — 1080 с
3. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1996. С. 90-93
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: Академия, 2001.-154с
5. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... / O'zbek tili va adabiyoti. 2012/№5. 3-16 б
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: ЯРК, 1996. - 284с